



IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA XORIJ TAJRIBASI

To'rayeva Ma'rifat Otaqulovna

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: Tovarlar ishlab chiqaradigan, xizmat ko'rsatadigan hamda ishlab chiqarish va ishlanmalar bilan band bo'lgan keng tarmoqli, ammo hamisha ham texnologik jihatdan o'zaro bog'lan-magan majmualar (masalan, agrosanoat majmui, o'rmonsanoat majmui) vujudga keladi va bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi deyiladi.

Kalit so'zi: Diversifikatsiya sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliy korxona xo'jalik faoliyati foyda olish xavf-xatarni kamaytirish mahsulot ishlab chiqarish xalq iste'moli tovarlari ishlab.

Diversifikatsiya (lot. olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. Ilgari bir sohada ixtisoslashgan firmalarning (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya va h.k.) boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari, xizmat ko'rsatish diversifikatsiyasi — o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) — korxona (birlashma)larning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Diversifikatsiya da yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda sohasiga, birinchi navbatda, yuqori foyda beradigan sohalarga kirib borishi ularning xo'jalik faoliyati sohalari va imkoniyatlarini kengaytiradi. Diversifikatsiya natijasida turli-tuman tovarlar ishlab chiqaradigan, xizmat ko'rsatadigan hamda ishlab chiqarish va ishlanmalar bilan band bo'lgan keng tarmoqli, ammo hamisha ham texnologik jihatdan o'zaro bog'lan-magan majmualar (masalan, agrosanoat majmui, o'rmonsanoat majmui) vujudga keladi va bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi deyiladi. Bundan tashqari, uning kredit diversifikatsiya ko'rinishi ham bor (bunda kredit sifatida beriladigan kapital mablag'lar xavf-xatarni kamaytirish va yuqori foyda olish maqsadida turli-tuman obyektlar o'rtasida taqsimlanadi). Bunday diversifikatsiya



tarmoqlararo kapital konsentratsiyasi jarayoni va korxonalararo ichki beqarorlikning kuchayishi bilan bogʻliq. Dunyo mamlakatlarida diversifikatsiya jarayoni XX asrning 50-yillari oʻrtalaridan rivojlana boshladi. Dastlab AQSH, Yaponiya, Gʻarbiy Yevropa davlatlarida diversifikatsiya sanoat, transport, qurilish, moliya sohalarida vujudga keladi. Shu bois, diversifikatsiya xarakteri mazkur davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, shuningdek, boshqa davlatlarga tegishli boʻlgan umumiy omillar (ilmiy-texnika inqilobi, yuqori foyda uchun kurash, raqobat kurashi, texnik taraqqiyotdan qolib ketmaslik va boshqalar) bilan belgilanadi. Diversifikatsiyada firmalar, ayniqsa, monopol firmalar kup tarmoqlilik tusini oladi. Ular, avvalo, koʻp daromadli, tez rivojlanadigan sohalar (masalan, elektronika, kimyo) da faoliyat boshlaydi. Kompaniyalar mahsulot ishlab chiqarish bilan birga, shu mahsulot uchun zarur boʻlgan xom ashyoni ham oʻzlari tayyorlashga kirishadi. Mablagʻlarni kam daromadli sohadan tejab koʻp foyda beradigan tarmoqlarga sarf etadilar. Masalan, AQSH konsernlari xizmat koʻrsatish, qurilish, yer maydonlari savdosi, nashr ishlari, savdo-sotiq axboroti, jihozlarni ijaraga berish va boshqalarda faoliyat yuritdi. Oʻzbekistan xalq xoʻjaligida yangi barpo etilgan sanoat korxonalarida asosiy mahsulot turidan tashqari qoʻshimcha mahsulotlar, xalq isteʼmoli tovarlari ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilgan. Diversifikatsiya usulida tavakkalchilik bir necha tovarlarga taqsimlanadi, yaʼni biror tovarni sotish (sotib olish) yuqori tavakkalchilik bilan bogʻliq boʻlishi boshqa bir tovarni sotishdan (sotib olishdan) boʻladigan tavakkalchilikni kamaytirishga olib keladi. Masalan, biror firma ikki xil mahsulot ishlab chiqaradi. Maʼlumki, bir vaqtning oʻzida ikkala mahsulot turiga boʻlgan talabning kamayib ketish ehtimoli, ulardan bittasiga boʻlgan talabni kamayib ketish ehtimolidan yuqori. Koʻp hollarda bir turdagi mahsulotga boʻlgan talab kamayganda ikkinchi turdagi mahsulotga boʻlgan talab oshadi. Firma oʻz ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilib yoz oyida ikkinchi tur tovar hisobidan yoʻqotadigan daromadini birinchi tur tovarni koʻproq sotish hisobidan qoplaydi. Xuddi shunday qish faslidagi yoʻqotishlar ikkinchi tovar hisobidan qoplanadi. Koʻrinib turibdiki firma diversifikatsiya yoʻli bilan tavakkalchilikni kamaytirdi. Lekin, diversifikatsiya tavakkalchilikni toʻliq yoʻqotmaydi, u faqat kamaytiradi xolos.



Modernizatsiya keng tushuncha bo'lib, uni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tadbiquan qo'llash mumkin. Bu, eng avvalo, modernizatsiyalash jarayonini turli jihatlariga ko'ra tasniflash orqali namoyon bo'ladi. "Modernizatsiya, modernizatsiyalash (inglizcha modern - eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash unga zamoaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish degan ma'noni bildiradi. Modernizatsiyalashda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talabriga muvofiq qayta ishlanadi". Xususan, ular modernizatsiya tushunchasiga tor ma'nodagi yondashuv sifatida quyidagi mazmundagi ta'rifni berish mumkin: "Modernizatsiya – obyektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan, mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi". Bundan ko'rinadiki, tor ma'nodagi modernizatsiya atamasi asosan texnika, texnologiyaga oid tushuncha hisoblanadi. Modernizatsiya – ishlab chiqarishning tayyorlanayotgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan texnologik yangilanish jarayonidir. U korxonalarning texnologik qoloqligini bartaraf etish vositasi bo'lib, mehnat, moddiy va xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish darajasiga keskin ta'sir ko'rsatadi. Modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash natijalari yuqori texnologik, raqobatdosh ishlab chiqarishning jadal rivojlanish shartini belgilab beradi.

Modernizatsiya jarayonini tavsiflashdagi turlicha yondashuvlar

Yondashuv yo'nalishlari	Modernizatsiya jarayonining qisqacha tavsifi
Klassik sotsiologiya (E.Dyurkgeym, M.Veber)	Ijtimoiy mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi ijtimoiy tabaqalanish jarayoni
	Xo'jalik subyektlarining o'z faoliyatlari iqtisodiy samarasini eng yuqori darajada oshirish imkoniyatini beruvchi ratsionalizatsiya jarayoni



Neoklassik maktab	Xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash vositasi
Keynschilar maktabi	Zamonaviy tarmoqlarni barpo etish maqsadida xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar

Jadvalga ko'ra, modernizatsiya jarayoni mazmunini klassik sotsiologiya vakillari "ijtimoiy tabaqalanish" hamda "ratsionalizatsiya" jarayonlari, neoklassik maktab vakillari "xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash vositasi", keynschilar maktabi vakillari esa "xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar" sifatida talqin etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraximov O. Sanoat iqtisodiyoti T.: —Sano Standart, 2014– 304b.
2. Abdukarimov I.T. va boshqalar Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2013 – 256 t.